

KICHIK BIZNESDA IQTISODIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING STATISTIK TADQIQI

O.Arzikulov

JizPI, Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti

Sh.Raxmatillayeva

552-23 turli quruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili hududlar kesimida statistik ma'lumotlar tahlilining optimal variantlarini tanlash negizida mahsulot ishlab chiqarish, xarajatlarni kamaytirishning qo'shimcha imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, statistik baholash, prognozlash, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В статье экономико-статистический анализ деятельности малого предпринимательства рассматриваются дополнительные возможности сокращения издержек производства продукции на основе выбора оптимальных вариантов анализа статистических данных в разрезе регионов. Также приведены прогнозные показатели выпуска продукции в субъектах малого предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, статистическая оценка, прогнозирование, экономическая эффективность.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholashda turli iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar korxonalarining iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinnari yaratishga va innovatsiyalarni rivojlantirishga qo'shgan hissasini aks ettiradi. Kichik biznes salohiyatining holati, tadbirkorlik rivojlanish darajasi mamlakatda ro'y berayotgan umumiy iqtisodiy jarayonlar, milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasi, davlatning yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga bog'liq.

P.L.Gluxix ilmiy tadqiqotlarida hududlarda tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha o'z uslubini taklif etgan. Unda kichik biznesni rivojlantirishning shart-sharoitlari, shakllanish jarayoni yoritilgan. Lekin kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatiga ta'sir etuvchi ishchanlik muhitini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalanilmagan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot kichik biznes subyektlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini reyting asosida baholash imkonini beradi.

Bular obyektiv va subyektiv statistika ko'rsatkichlaridir. Ob'ektiv statistik ko'rsatkichlar tizimi rasmiy statistika idoralari va boshqa rasmiy tashkilotlar manbalari asosida yuritsa, subyektiv statistik ko'rsatkichlar tizimi aholi va kichik tadbirkorlik subyektlari o'rtasida mustaqil o'tkazilgan so'rov nomalari natijalariga asoslanadi. Ushbu statistik ko'rsatkichlar tizimi asosida hududning kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini baholashga imkon beruvchi mahalliy budjet daromadlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan soliq tushumlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik soni, kichik tadbirkorlik aylanmasi hajmi va boshqa ko'pgina statistik ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatining holati va rivojlanishini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi: obyektiv statistikaga

asoslanadigan ko'rsatkichlar tizimi hamda subyektiv statistikaga asoslanadigan ko'rsatkichlar tizimi. Ob'ektiv statistikaga asoslanadigan ko'rsatkichlar tizimiga Davlat Statistika Qo'mitasi, Davlat Soliq Qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va boshqa rasmiy idoralar ma'lumotlari kiradi. Shuningdek bugungi kunda kichik biznes subyektlarining baholanishi lozim bo'lgan statistik ko'rsatkichlariga quyidagi ko'rsatkichlari kiradi:

Asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- Daromad olish:** Korxonaning mahsulot yoki xizmatlarni sotishdan olgan sof tushumi va foydasi. Bu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy barqarorligini va bozor talabiga moslashuvchanligini ko'rsatadi.
- Bandlik darajasi:** Kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan ish o'rinnari soni. Bu ko'rsatkich ularning ijtimoiy ta'sirini va jamiyatdagi ishsizlik darajasini kamaytirishdagi rolini aks ettiradi.
- Innovatsiyalarni joriy etish:** Yangi texnologiyalar va ish uslublarini qo'llash orqali mahsulot yoki xizmat sifatini oshirish. Bu ko'rsatkich korxonaning raqobatbardoshligini va bozor ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi ham muhimdir. Bu borada ishlab chiqarish omillarining samaradorligini baholashning hozirgi holati tahlil qilinadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Bu esa korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, respublikada xizmat ko'rsatish, faol tadbirkorlik iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlari singari rivojlanib borayotgan sohadir. Shunga ko'ra, mazkur sohada faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari iqtisodiy samaradorligining barcha ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari o'z aksini topadi.

Lekin bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq emas, degan fikr kelib chiqmaydi. Aksincha, ular uzviy bog'langan va bir-birini taqozo qiladi, to'ldiradi. Iqtisodiy samaradorlik sifat jihatidan hisoblab chiqilmasa va o'lchanmasa, uning muntazam oshib borishi bo'yicha belgilangan ishlarni bajarib bo'lmaydi. Iqtisodiy samaradorlikning o'sishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish har qanday shakli rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatidir. Chunki, jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va sifati ortishini, ishlab chiqarish va muomala, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun jamg'arishni ko'paytirishni talab etadi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiatiga munosib tarzda kirib borishida kichik biznes muhim rol o'ynaydi. Chunki ko'plab biznes tahlilchilari va tadqiqotchilar XXI asrda tadbirkorlik qator mamlakatlarda iqtisodiyotning dinamik qismiga aylanib, milliy iqtisodiyot taraqqiyotining mustahkam tayanchini tashkil etadi degan fikrdalar. Boshqacha qilib aytganda, kichik biznes har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab yashnashining asosiy negizi bo'lib, bozor munosabatlariiga o'tish sharoitida iqtisodiyotning tayanch sohasi sifatida tan olingan. Shu bois mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari hamda aholi farovonligining oshishi hal qiluvchi darajada aynan tadbirkorlikning rivojlanishiga bog'liq hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON,2025

1. Soatov N.M., Nabihev X., Ayubjonov A.H. Statistika. Darslik. Toshkent-2019. TDIU.
2. N.M.Soatov., G.N.Tillaxo'jayeva. Statistika. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2005. 286 b.
3. X.Shadiev., I.Xabibullaev. STATISTIKA. Toshkent – 2013. “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti. 384 b.
4. N.M.Soatov., A.H.Ayubjonov. Statistika nazariyasi. Darslik. IQTISODIYOT – 2020. 374 b.